

Mahalladagi xotin-qizlar faollari lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari

| Lavozimlar nomi | Ma'lumot | Lavozimlarga asosiy malakaviy talablar | Mehnat staji | Xorijiy tilni bilish darajasi | Kompyuter savodxonligi | Qo'shimcha talablar |
|---|---|--|--|--|--|--|
| <p>Mahalladagi xotin-qizlar faollari</p> | <p>Oliy ma'lumotga ega bo'lishi kerak (istisno tariqasida o'rta-maxsus) ma'lumotiga egaligi;</p> | <p>Tashkilotchilik qobiliyatiga, hayotiy tajribaga va aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lishi; Oilali bo'lishi; Kompyuter va birlashtirilgan planshetlarda, internet dasturlarida ishlay olishi; Davlat rahbari tomonidan Yangi O'zbekistonni barpo etish borasidagi islohotlardan, xususan, xotin-qizlar yo'nalishiga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlardan xabardor bo'lishi; Fuqarolarni tinglash qobiliyatiga va muomala madaniyatiga ega bo'lishi; Fuqarolarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qila olishi; Fuqarolarga yordam ko'rsatishda adolatlilik, halollik, xolislik tamoyiliga qat'iy amal qilishi va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi; Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lishi; Oila va xotin-qizlar bilan ishlash tajribasiga ega, shaxsiy fazilatlari bilan namuna ko'rsatgan, fidoyi va sadoqatli bo'lishi; Ichki ishlar organlari bilan birgalikda notinch, noqobil oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshira olishi;</p> | <p>Kamida 3 yil ish stajiga ega bo'lishi</p> | <p>Rus va ingliz tillarini bilishi ustunlik beradi</p> | <p>Kompyuterdagi dasturiy majmualar Microsoft Word, Exsel va Power Point dasturlarida erkin ishlashi</p> | <p>Sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish; Sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, soha bo'yicha muammolardan kelib chiqib, ularning yechimi bo'yicha takliflar ishlab chiqarish</p> |

| Lavozimlar nomi | Ma'lumot | Lavozimlarga asosiy malakaviy talablar | Mehnat staji | Xorijiy tilni bilish darajasi | Kompyuter savodxonligi | Qo'shimcha talablar |
|-----------------|----------|---|--------------|-------------------------------|------------------------|---------------------|
| | | <p>Ta'lim muassasalarida o'quvchi qizlarning tarbiyasi va ularning ongida oilaviy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini mustahkamlash, oilaviy hayotga tayyorlash tadbirlarini ta'sirchan usullarda tashkil eta olishi;</p> <p>Mahalla hududidagi korxonalar, tashkilot va muassasalarda boshlang'ich xotin-qizlar tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish yo'l-yo'riqlarini bilishi va ularni o'z atrofiga jipslashtira olish qobiliyatiga ega bo'lishi;</p> | | | | |